

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA-MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA
INSTITUTI

«Muhandislik-texnologiya» fakulteti

«Pedagogika» fanidan

REFERATI

Topshirdi:

Rahimova X

Qabul qildi:

N. Mullaboeva

Namangan-2015

*O‘zbekistonda uzluksiz ta‘lim
tizimi. Didaktika.*

R e j a

- 1. Didaktikaning predmeti, vazifalari va asosiy kategoriyalari.**
- 2. O`qitish jarayonining mohiyati, kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'limga yangicha yondoshish.**
- 3. Milliy ta'lim modeli. Davlat ta'lim standartlari**

Didaktika ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o`rganuvi qismidir.

Didaktika grekcha so`z bo`lib, «Didasko» - «o`qitish», «Didaskon» - «o`rgatuvchi» degan so`zlardan kelib chiqqan.

Didaktikaning soʻzma – soʻz tarjimasi taʼlim nazariyasini anglatadi. Taʼlim nazariyasi taʼlim jarayonining tushunchasi va mohiyatini, taʼlim qoidalarini, uslublari xamda tashkiliy formalarini oʻz ichiga oladi.

Didaktika oʻz oldiga oʻqitishning talabalarni xar tomonlama tarbiyalash maksadlariga javob beruvchi umumiy konuniyatlarini bilib olish vazifasini qoʻyadi.

Didaktika pedagogikaning «nimaga oʻqitish», «nimani oʻqitish» va «qanday oʻqitish» kabi savollariga javob beradi.

Utmishga nazar solsak, bu dunyoda ne - ne daxolar yashab utmaganlar. Saboklarga boy oʻtmishimizda Al - Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi buyuk alloma bobokalonlarimiz tibbiyot, mantik, musika, adabiyot, geografiya, riyoziyot kabi ilmlarni oʻqitish vositasida avlodlarni tarbiyalash gʻoyasini olga surganlar. Kaykovusning «Qobusnoma», Yusuf Xos Xojibning «Qutadgu bilig», Axmad Yugnakiyning «Xibat-ul-xakoyik», Alisher Navoiyning «Saodatnoma», «Maxbub-ul-kulub» (Kungillar sevgisi) asarlarida ilgor pedagogik karashlar xam ifodalangan. Ular dunyoviy (bilimlarni) taʼlimni rivojlantirishga katta xissa qoʻshganlar.

Oʻqitish jarayonining mohiyati, kadrlar tayyorlash milliy dasturida taʼlimga yangicha yondoshish:

«Taʼlim toʻgʻrisida»gi konunning asosiy negizi bulgan uzluksiz taʼlimning maksadi insonning faqat zakiylik quvvati, intellektual imkoniyatini shakllantirish va boyitishdangina iborat emas. Uzluksiz taʼlim ukitish va tarbiyaning uzviy birligi sifatida shaxsni odamni ijtimoiy extiyojni dolzarbligi va istikbolini xisobga olgan, birgalikda shakllantirish jarayonining muxim tarkibiy kismidir. Ushbu tizimda xar bir va muvofiklantirilgan xolda tarbiyalash umumtaʼlim maktablarida islox etilgan taʼlim va kasbiy taʼlimga tayyorlash masalalarining echimini taʼminlaydi va bunda insonning butun xayoti davomida oʻz-oʻziga, taʼlimga, bulishi lozimligi belgilanadi.

Uzluksiz ta'lim jamiyat moddiy va ma'naviy xayotining xamma tomonlariga ta'sir utkazuvchi, millionlab kishilarning turmush tarzini tubdan uzgartiruvchi yangi omil sifatida e'tirof etiladi; uzluksiz ta'lim xayotiy kadriyatlar va rejalarning yangi tuzilishini, shuningdek bilimlar sifatiga nisbatan yangi munosabatini shakllantiradi. Xar bir kishining keng ma'nodagi madaniyat chukkilarga kutarilishi, xozirgi zamon madaniyatining butun ma'naviy boyligini umuminsoniy kadriyatlar darajasida uzlashtirishi uzluksiz ta'lim tizimining eng muxim maksadi va vazifasi sifatida namoyon buladi. Milliy dasturda kuzda tutilgan ta'lim tarbiyani uzluksiz ta'lim tizimini tashkil etish, uni tubdan yangilash va rivojlantirishda kuyidagi asosiy tamoyillarga tayangan xolda xayotga tadbik etish belgilanadi; ya'ni isloxotlar boskichma-boskich amalga oshiriladi.

Birinchi boskich utish davri bulib, u 1997-2001 yillarda 4 yil davomida joriy etiladi. Bu boskichda asosan kuyidagi vazifalarni bajarish kerak. Milliy dasturning amalga oshirishning boshlanishi: ya'ni talabga javob beradigan pedagoglarni tayyorlash. Ukuv standartlarini yaratish va yangi ukuv programmalari ustida ishlash, umumta'lim maktablarini tuzilish jixatidan kayta kurish; 3 yillik ta'lim urta maxsus va kasb-xunar bilim yurtlari (kasb – xunar kollejlari va akademik litsey) tizimiga zamin tayyorlash; uzluksiz ta'lim tayanch tizimiga asos soladigan tadbirlarni amalga oshirish. Ijtimoiy ximoyani kafolatlash kabi masalalarni echish boskichi.

Ikkinchi boskich-2001-2005 yillarni uz ichiga oladi. Bunda milliy dasturni keng mikyosda tulik amalga oshirishga erishish darkor.

Tabiiyki tizim faoliyatini samaradorligini mexnat bozorini inobatga olib, ijtimoiy-iktisodiy sharoitdan kelib chikib, dastur goyalari va koidalariga kerakli uzgartirishlar kiritiladi.

Uchinchi boskich 2005 va keyingi yillarga muljallangan bulib, unda tuplangan tajribalarni taxlil etish va umumlashtirish asosida uzgaruvchan ijtimoiy-iktisodiy shart-sharoitlarni e'tiborga olgan xolda kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishni rivojlantirish zarur.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Davlat ta'lim standartlariga muvofik ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;
- Ta'lim tizimini faoliyat kursatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bulgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalari;
- Ta'lim soxasidagi davlat boshkaruv organlari, shuningdek unga karashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar;

Uzbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.



O'zbekiston Respublikasida ta'lim kuyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- **Maktabgacha ta'lim**
- **Umumiy Urta ta'lim**
- **Urta maxsus kasb-xunar ta'limi**
- **Oliy ta'lim**
- **Oliy ukuv yurtidan keyingi ta'lim**
- **Kadrlar malakasini oshirish va kayta tayyorlash**
- **Maktabdan tashkari ta'lim**

“O'zbek modeli” deb nom olgan qator noyob, takrorlanmas uziga xos xususiyatlarga ega bulgan kadrlar tayyorlash milliy modeli ta'limning milliy modelining ishlab chikish mustakil Uzbekistonning buyuk kelajagini belgilab berdi.

U O'zbekistonning xalqaro andozalaridagi zamonaviy tarakkiyotni ta'minlay oladigan dadil, mustakil tafakkurli, malakali bilimli mutaxassis, ayni paytda ichki insoniy sifatleri bark urib, kamolotga etgan kadrlarni tayyorlash maksadini ko'zlaydi.

Milliy modelning bu - shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chikarishning uzviy birligi va xamkorligi, ularning o'zaro bir-biriga alokasini aks ettiradi.

SH A X S - kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim soxasidagi xizmatlarning iste'molchisi va uni amalga oshiruvchi; davlat va jamiyat - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat kilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni kabul kilib olishning kafolatlaydi.

Milliy dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi barkamol shaxsni-insonni va shu tarika ongli jamiyatning shakllanishiga yangicha ong, tafakkurga

ega bulgan shaxslarning kupayishiga va bu uz navbatida ijobiy ravishda "portlash effekti"ning sodir bulishiga olib keladi.

"Portlash effekti" natijasida yangi shaxs shakllanishi uchun tub isloxotlarning bosh xarakatlantiruvchi kuchi yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tadbik etadi, bunda avtoritar pedagogikadan voz kechib, xamkorlik pedagogikasiga utishimiz kerak buladi.

Standart - ta'limda yaratilgan me'yoriy reja, dastur, darsliklarni uzlashtirish ekvivalenti, ya'ni ta'lim mazmunini uzlashtirish darajasidir. Standartni ishlab chikishda talablarni xaddan tashkari uzgartirib yubormaslik talablariga rioya kilish, ya'ni talaba yoshiga mos, uni bajarishga kurbi etadigan darajada bulishi kerak. Bunda albatta ta'lim oluvchining kizikishi, xoxishi, extiyoji xisobga olinishi lozim. Ta'lim standartlarini uzlashtirishda shaxsga muxim axamiyat berilishi, unga yakka tartibda yondashilishi maksadga muvofikdir. Standartlarini ukuv jarayoniga tadbik etishda uta puxtalik bilan tajriba-sinovdan utkaziladi va shu asosda boskichma-boskich ukuv jarayoniga kiritib boriladi

Ta'lim mazmunining strukturasi va tuzilishi kuyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ▣ Ta'lim mazmunining davlat sotsial iktisodiy rivojlanishi yunalishlariga bogliklik tamoyili.
- ▣ Prezidentimiz I.A.Karimov respublikamiz ijtimoiy-iktisodiy rivojlanishning 5 ta tamoyilini belgilab bergan.
- ▣ Iktisodiyotning siyosatdan ustunligi.
- ▣ Qonun ustuvorligi.
- ▣ Bozor iktisodiyoti munosabatlariga utish jarayonini davlat boshkaradi.
- ▣ Axolini ijtimoiy ximoyalash.
- ▣ Bozor iktisodiyotiga boskichma-boskich utish tamoyili.
- ▣ Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash tamoyili
- ▣ Fanlararo kompleks alokalar tamoyili.
- ▣ Kasblarga yunaltirish tamoyili.
- ▣ Ta'lim mazmunini tanlashda ustuvor va uzgaruvchan kislmlarga bulib tanlash tamoyili.

- ▣ Ta'lim mazmuni uni fiksatsiyalash va tabakalashtirish tamoyli.
- ▣ Ta'lim mazmunini belgilashda yukoridagi tamoyillarga asoslangan xolda tayanch ukuv reja va ukuv dasturi tuziladi.

Xulosa kilib aytganda milliy dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi barkamol shaxsni-insonni va shu tarika ongli jamiyatning shakllanishiga yangicha ong, tafakkurga ega bulgan shaxslarning kupayishiga va bu uz navbatida ijobiy ravishda "portlash effekti"ning sodir bulishiga olib keladi.

"Portlash effekti" natijasida yangi shaxs shakllanishi uchun tub isloxotlarning bosh xarakatlantiruvchi kuchi yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tadbik etadi, bunda avtoritar pedagogikadan voz kechib, xamkorlik pedagogikasiga utishimiz kerak buladi.